

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.Inoyatova	
Oilaviy munosabatlarda shaxsning milliy va umummadaniy dunyoqarashining shakllanishidagi shart-sharoitlar	207
U.Qurbonov	
Mishel Monten falsafasida gumanistik antropotsentrizm masalalari	212
G.Ravshanova	
Ta'lim –tarbiya muassasalarida axborot-kutubxona ishlarini tashkil etishning ma'naviy-axloqiy jihatlari	216
O.O'roqova	
Sharq romantizmining estetik xususiyatlari.....	219
F.Rabbimova	
Tasavvuf va futuvvat ta'limotlari haqida mulohazalar	222
D.Axmedova	
Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning asoslari	226
N.Sabirov	
Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishning dolzarb masalalari	231
Sh.Murtozayev	
Abu Hafs Umar Suhravardiy inson nafsini anglashga doir falsafiy qarashlarining tahlili.....	236
I.M.Arzimatova	
Ayol rahbar kadrlarning axloqiy va estetik madaniyatini rivojlantirishning falsafiy jihatlari	240
A.A.Tojaliyev	
Oliy ta'lim- Yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim sharti	245
A.A.Abdumalikov	
Innovatsion ekologik tafakkurni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari	249
O'.X.Rajabov	
"Yangi O'zbekiston - ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirishda konsensus madaniyatining ahamiyati	253
	SIYOSAT
M.U.Jo'rayev	
Ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish	258
A.Xudayberdiyev	
Globalashuv sharoitida xalqaro siyosat va missionerlik.....	263
O.Majidov	
O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha yangilangan siyosatning ayrim jihatlari va ijodiy xususiyatlari	268
M.U.Jo'rayev	
Ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	273
Sultonov Javohir, Mamajonov Farhod	
Xalqaro munosabatlarda konstruktivizm nazariyasining o'ziga xosligi	279
J.Sh.Museyibzada	
Yevropa parlamentiga kirish va tahlil	285
	TARIH
I.G'ulomov	
Turkistonda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbiri.....	292
U.O'sarov	
XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi qishloq xo'jaligida Sholi yetishtirish va uning ahvoli	297
F.Utayeva, B.Safarov	
Buxoro ip-gazlama kombinatining qurilish tarixi va ishlab chiqarish faoliyati	303
A.Usmonov	
Badiiy hunarmandchilik bilan bog'liq nomoddiy madaniy meroslar	308
A.Yarkulov	
Arxeologiya parklarining ba'zi o'ziga xos xususiyatlari	314
B.Usmanov	
Mustaqillik yillarida suv muammolarini bartaraf etishda davlat siyosati.....	320

**TURKISTONDA O‘TKAZILGAN AHOLINI RO‘YXATGA OLISH TADBIRI
(1897-yilda o‘tkazilgan dastlabki tadbir misolida)****МЕРОПРИЯТИЕ РЕГИСТРАЦИИ НАСЕЛЕНИЯ В ТУРКЕСТАНЕ
(На примере первого мероприятия, проведенного в 1897 г.)****REGISTRATION EVENT OF THE POPULATION OF TURKISTAN
(In the example of the first event held in 1897)****G‘ulomov Ilhomjon¹****¹G‘ulomov Ilhomjon**– Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
gumanitar fanlar kafedrası t.f.f.d. (PhD)**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Turkiston O‘lkasida 1897-yilda o‘tkazilgan aholini ro‘yxatga olish tadbiri to‘g‘risida so‘z boradi. 1897-yilgi o‘lka hududida o‘tkazilgan aholini ro‘yxatga olish tadbiri jarayonida Markaziy Statistika Boshqarmasi tomonidan ro‘yxatga olingan aholi statistikasi shakllantirilganligi va mazkur tadbirning yakuniy natijalari viloyatlar kesimida chop etilgani birlamchi statistik manbalar asosida atroflicha tahlil qilingan.

Shuningdek, mazkur maqolani yoritishda ilmiy jamoatchilikka hozirgacha ma‘lum bo‘lmagan yangi ma‘lumotlarga asoslangan arxiv hujjatlari atroflicha qiyosiy tahlil etilib, ushbu jarayon yuzasidan mahalliy aholi vakillari orasida olib borilgan targ‘ibot va tashviqot ishlari hamda aholi bu ijtimoiy-siyosiy jarayonni qanday ruhda kutib olganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan.

Аннотация

В данной статье идёт обсуждение переписи населения, проведенной в 1897 году в Туркестанской области. В ходе переписи населения 1897 года, проведенной на территории страны, были сформированы статистические данные о населении, зарегистрированные Центральным статистическим управлением, и окончательные итоги этого мероприятия были опубликованы в региональном отделе.

Также в освещении данной статьи всесторонне и сравнительно проанализированы архивные документы на основе новых сведений, не известных научному сообществу, а также дана информация о пропагандистско-пропагандистской работе, проводимой среди представителей местного населения в связи с этот процесс, а также то настроение, в котором население приветствовало этот общественно-политический процесс.

Abstract

This article talks about the population census held in 1897 in the Turkestan region. In the course of the 1897 population census held in the territory of the country, the statistics of the population registered by the Central Statistics Office were formed and the final results of this event were published in the regional section.

Also, in the coverage of this article, archival documents based on new information not known to the scientific community have been comprehensively and comparatively analyzed, and information has been given about the promotion and campaigning activities carried out among representatives of the local population regarding this process, as well as the spirit in which the population welcomed this socio-political process.

Kalit so‘zlar: Aholini ro‘yxatga olish tartibi, aholini ro‘yxatga olish dasturi, aholi soni, jinsiy tarkib, aholi tabiiy o‘sishi, statistika, doimiy aholi, aholi zichligi, shahar, uyezd, qishloq aholisi, jazo choralari, hisobchi, nazoratchi-instruktor.

Ключевые слова: переписной порядок, программа переписи населения, численность населения, половой состав, естественный прирост населения, статистика, постоянное население, плотность населения, город, уезд, сельское население, меры наказания, счетовод, надзиратель-инструктор.

Key words: Census procedure, population census program, number of population, sex composition, natural population growth, statistics, permanent population, population density, city, uyezd, rural population, penal measures, accountant, supervisor-instructor.

KIRISH

Dunyoning barcha mamlakatlarida aholi soni, inson omili va ijtimoiy muammolarni hal qilish to‘g‘risidagi statistik ma‘lumotlar har bir davlatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Bu borada aholini ro‘yxatga olish tadbirlari muhim rol o‘ynaydi. Jahon amaliyotida aholini ro‘yxatga olish tadbirlaridan asosiy ko‘zlangan maqsad shuki, mamlakatda istiqomat qilayotgan fuqarolar, xorijiy fuqarolar, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar va ularning uy-joylari hamda davlatning kelgusidagi ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti uchun aholi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘liq jamlashni ko‘zda tutadi. Shu nuqtai-nazardan bugungi kunda jahon miqyosida ro‘y berayotgan

TARIX

globallashuv va aholi sonining muntazam o'sib borishini inobatga olgan holda, aholini ro'yxatga olish tadbirlarini o'tkazishning rivojlanish bosqichlari va yo'nalishlarini yaxlit tadqiq etishga zarurat kuchaymoqda. Bu esa o'z navbatida bugungi kunda rivojlangan har bir mamlakatda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbirlari tarixi, bu tadbirlar asosida yig'ilgan aholi to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar olib borish ehtiyojini yuzaga keltiradi.

Har bir ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mohiyatini to'g'ri tushunmoq va chuqur anglamoq uchun o'sha davr, o'sha hududda istiqomat qiluvchi aholi soni, millati, kundalik turmush tarzi, aholi bandligi, demografik rivojlanish muammolarini atroflicha o'rganish va tadqiq qilish juda muhimdir. Mazkur maqolada Turkiston o'lkasi aholisi to'g'risida XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida to'plangan ma'lumotlarni o'rganishni hamda ularni xolisona tahlil qilib, atroflicha yoritish maqsad qilib olindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jamiyat taraqqiyoti davomida aholini ro'yxatga olish juda qadimdan boshlangan bo'lib, xususan, miloddan avvalgi 2800, 2250 va 2238-yillarda Misr, Mesopotamiya, Xindiston va Xitoyda aholini ro'yxatga olish ishlari o'tkazilganligi to'g'risida ma'lumotlar bor. Shuningdek, miloddan avvalgi IV asrda Yunoniston va Rimda ham aholini ro'yxatga olish tadbirlari o'tkazilganligi ma'lum. Yaponiya va Bobilda ham juda qadimdan aholini ro'yxatga olish tadbirlari o'tkazilgan bo'lib, undan asosiy ko'zlangan maqsad, aholidan turli xildagi soliqlarni yig'ish hamda harbiy maqsadlar uchun aholi sonini, asosan erkaklar sonini bilish juda muhim bo'lgan.

Rossiyada 1245, 1257, 1259 va 1273-yillarda harbiy yurishlarga jalb etiladigan barcha erkaklarni ro'yxatga olish ishlari olib borilgan. AQSH ro'yxatga olish ishlarini dastlab qora tanlilarni ro'yxatga olishdan boshlagan. Bora-bora o'z hududidagi barcha aholini ro'yxatga olish ishlariga rasmiy tarzda urg'u berib, barcha aholini ro'yxatga olish tadbirlarini o'tkazib borgan. Aholini ro'yxatga olish tadbirlari bilan bog'liq bo'lgan arxiv hujjatlarini o'rganish davomida shu narsa aniqlandiki, AQSH 1790-yildan boshlab har 10 yilda muntazam ravishda o'z hududi aholisini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazib kelgan. Fransiya 1801-yildan boshlab deyarli har 5 yilda, Angliya 1801-yildan boshlab har 10 yilda, Italiya 1801-yildan boshlab har 10 yilda, Hindiston 1881-yildan boshlab har 10 yilda, Turkiya esa 1927-yildan boshlab har 10 yilda aholini ro'yxatga olish tadbirlarini o'tkazib kelgan. Bunday tadbirni keng miqyosda o'tkazish ayniqsa XX asrdan boshlab butun dunyo mamlakatlarida juda keng tarqaldi. Xususan, XIX asr oxirlariga kelib Turkistonda ham aholini ro'yxatga olish tadbirlarini o'tkazish ishlariga siyosiy urg'u berish boshlandi. Turkiston o'lkasi hududida ham xonliklar davrida o'tkazilgan aholini ro'yxatga olishda asosan erkaklar, ya'ni oila boshliqlari jalb etilgan. O'lka hududida hukmronlik qilgan xonliklar davrida o'tkazilgan erkaklarni ro'yxatga olish ishlarini rasmiy ravishda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbirlari qatoriga kiritish bizningcha noto'g'ridir. Sababi, faqatgina erkaklar hisobini olish orqali ma'lum bir hudud aholisi soni to'g'risida batafsil ma'lumotga ega bo'linmaydi.

O'zbekiston hududida ham aholini ro'yxatga olish juda qadimdan mavjud bo'lib, xo'jaliklar ro'yxati, erkaklar soni, soliqlar olish, urushlarga erkaklarni safarbar etish kabi bir qator maqsadlarda ro'yxatga olish ishlari o'tkazilgan. Bu kabi o'tkazilgan ro'yxatga olish ishlari tartibsiz va ma'lum bir metodlarga asoslanmagan holda o'tkazilganligi sababli bunday hisob-kitoblarni aholini ro'yxatga olish tadbirlari deb bo'lmaydi. Aholini ro'yxatga olish tadbiri bir vaqtda butun bir davlat yoki ma'lum bir hududda, aholi tug'ilgan yoshdan boshlab uning yoshi, tili, dini, ish joyi, fuqaroligi kabi bir qator statistik ma'lumotlar hammasi hisobga olinishi zarur. O'zbekiston hududida aholi soni to'g'risidagi muntazam statistik ma'lumotlar 1897-yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbiridan boshlab mavjuddir. Tadqiq etilayotgan davrda O'zbekiston hududida aholining demografik tarixi mukammal o'rganilmagani sabablaridan biri shuki, aholi to'g'risida batafsil va aniq ma'lumotlarning yo'qligi, fuqarolik holatini qayd etish ishlari rasmiy tarzda yo'lga qo'yilmaganligi natijasi hisoblanadi, chunki, aholi salmog'ining o'sishi bilan bog'liq bo'lgan tabiiy jarayonlar – tug'ilish, o'lim, nikohlanish va nikohni bekor qilish singari holatlarning mutasaddisi din peshvolari hisoblanib, ular bu masalalarda hech qanday umumiy hisobot yuritishga va aholi ro'yxati bilan bog'liq statistikaga deyarli qiziqishmagan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Rossiya imperiyasi va Turkiston o'lkasi o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlar kuchaygan XIX asrning ikkinchi yarmidagi tarixiy jarayonlar bugungi kundagi O'zbekistonning nafaqat ijtimoiy-

iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida ham bir qator o'zgarishlarga sababchi bo'ldi, balki, aholi soni, milliy tarkibi, migratsiya, emmigratsiya kabi ijtimoiy jarayonlarda ham chuqur o'zgarishlarga olib keldi. Rossiya imperiyasi tomonidan imperiyaning barcha hududlarida aholini yoppasiga ro'yxatdan o'tkazish va milliy tarkibini aniqlash zarurati aholining soni va tarkibi to'g'risida aniq ma'lumotlar yo'qligi sababli kelib chiqdi.

O'lkaga gubernator etib tayinlangan general-adyutant K.P.Kaufman hisobotining birinchi bobida mazkur masalaga keng e'tibor qaratilgan. U 1880-yilga kelib, o'lka aholisi 3 150 000 nafarga yaqin deb hisobot beradi. Albatta, bu faktlar taxminiy ekanligini, unga sabab esa, o'lkada istiqomat qiluvchi aholi hali to'liq ro'yxatga olinmaganligida deb ma'lum qiladi. Rossiya imperiyasiga berib borilgan yillik hisobotlarda o'lkadagi viloyatlar aholisining umumiy sonini ko'rsatgan holda statistik hisobotlar taqdim etib borilgan halos.

Rossiya imperiyasi aholisi soni va tarkibi to'g'risida ham 1897-yilgi aholi ro'yxati o'tkazilguniga qadar aniq ma'lumotlar bo'lmagan. Aholining soni to'g'risidagi ma'lumotlar politsiya – tartib saqlovchilar tomonidan to'planar, yig'ilgan ma'lumotlar asosida esa aholi to'g'risidagi jadvallar tuzilgan. Bu jadvallar gubernatorlik hisobotlariga muntazam ravishda ilova sifatida tikib borilgan. Bu yo'l bilan olingan ma'lumotlarning kamchiligi qay darajada ekanligini Rossiya imperiyasining Markaziy Statistika Qo'mitasi (MSQ) tomonidan 1875-yilda berilgan hisobotda aytilgan quyidagi fikrlar orqali bilib olish mumkin: "Imperiya aholisining soni va milliy tarkibi to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni 1870-yil uchun chop etgan holda, MSQ shuni ma'lum qiladiki, bu kabi ishonchli bo'lmagan ma'lumotlarni xalqqa yetkazishdan voz kechish lozim, yaqin kelajakda bir kun ichida Rossiya imperiyasining butun aholisini ilmiy jihatdan ro'yxatdan o'tkazish shart". Buni Turkiston o'lkasida taftish ishlarini olib borgan maslahatchi F.K.Girs ham o'z taftish hisobotida qayd etib o'tgan.

1897-yil Butunrossiya aholisini ro'yxatga olish tadbiri o'tkazilgunga qadar ro'yxatga olish ishlari 1889-yilgacha Rossiya imperiyasining 79 ta shahar aholisi tajriba sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan. Butunrossiya aholisini ro'yxatga olish to'g'risidagi birinchi nizom 1895-yil 5-iyun kuni imperator Nikolay II tomonidan imzolangan. Rossiya imperiyasi tomonidan Butunrossiya va uning mustamlaka hududlari aholisini ro'yxatga olish to'g'risidagi buyruqqa esa 1896-yil 27-noyabrda imperator Nikolay II tomonidan imzo qo'yildi. Aholini yoppasiga va maxsus dastur asosida dastlabki rasmiy ro'yxatga olish jarayonlari esa 1897-yilda 28-yanvar (yangi taqvim bo'yicha 9-fevral sanasiga to'g'ri keladi) holatiga ko'ra o'tkazildi. Unga ma'lum tayyorgarliklar ko'rilgan hamda aholi to'g'risidagi barcha statistikani aniqlash uchun maxsus dastur va savolnoma ishlab chiqilgan bo'lib, tashkiliy ishlarda P.P.Semyonov Tyan-Shanskiy boshchiligidagi bir qator boshqa soha olimlari ham ishtirok etishgan. P.P.Semyonov Tyan-Shanskiy 1864-1875 yillarda Rossiya imperiyasi Markaziy Statistika Qo'mitasini, 1875-1897 yillarda esa Ichki ishlar vazirligi Statistika sovetini boshqargan. U ko'p yillar davomida Rossiya imperiyasi va uning barcha mustamlaka hududlaridagi mavjud aholi to'liq ro'yxatdan o'tkazish shartligi va buning yutuqlari to'g'risida imperator huzuridagi yig'ilishlarda takrorlab kelgan.

Imperiya tomonidan bosib olingan ko'plab mustamlaka hududlar aholisi bu tadbirlarga hali tayyor emas, aniqroq qilib aytganda, mazkur tadbir nima uchun o'tkazilishi va bundan ko'zlangan bir qator maqsadlar nafaqat mustamlaka o'lkalaridagi mahalliy aholi ongida, balki, Rossiyaning markaziy guberniyalarida istiqomat qiluvchi aholida ham ushbu tadbir to'g'risida aytarli darajadagi tushuncha umuman yo'q edi. Barcha aholini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida aholi orasida juda ko'plab mish-mish gaplar yurar, ba'zida bu gaplar aholini qattiq sarosimaga solgan.

1897-yilgi aholini ro'yxatga olish tadbiriga har bir tizimdagi rahbarlar jalb etilgan. 1937 yilga kelib Toshkent shahar xalq xo'jaligini hisobga olish boshqarmasi xodimi bo'lib ishlagan S.A.Nestrov ilk marotaba o'tkazilgan tadbir bo'yicha quyidagilarni xotirlaydi: "Men o'sha vaqtlarda zemstvo o'qituvchisi bo'lib ishlardim. 1897 yilda ilk bor o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbirida qatnashmoqchi bo'lib zemstvo boshlig'iga murojaat qildim, lekin menga ruxsat berishmadi. O'sha vaqtlarda aholini ro'yxatga olishdan maqsad soliq solish va harbiy holatlarda barcha erkaklarni safarbar etish ko'zda tutilgan edi. Shu sababli ham aholini ro'yxatga olish ishlariga umuman ishonmas va bu tadbirga nafrat ko'zi bilan qarardi. Xalq orasida "aholi ro'yxatini yana qancha qamoqxona ochish va ularni qayerga ochish kerakligini bilish uchun o'tkazmoqdalar" mazmunidagi turli xildagi mish-mishlar tarqalganligi keltiriladi. Tadbir jarayonlarini atroflicha yoritib borgan davriy

TARIX

matbuot nashrlaridan biri bo'lgan "Qizil O'zbekiston" gazetasida keltirilishicha, juda ko'plab aholi ongli ravishda mazkur tadbirdan yashiringani, qishloqlarda istiqomat qiluvchi aholi hisobchilarning, eshonlarning, mullalar va boshqalarning diniy tashviqotlariga qaramay, ro'yxatdan qochib o'rmonlarga, tog'larga chiqib ketib berkinishgani, ayrim joylarda esa aholi o'zini-o'zi yondirib yuborganligi qayd etiladi".

Turkiston o'lkasi viloyatlari aholisi 1897-yilgi birinchi ro'yxatga olish sanasida quyidagi ma'muriy bo'linishga ega edi: Farg'ona, Samarqand, Sirdaryo va Amudaryo bo'linmalari. Bundan tashqari Buxoro amirligi hududi 28 ta bekklik va tumanlardan iborat bo'lib, Xiva xonligi esa 21 ta bekklik va 2 ta noiblikdan tashkil topgandi. Hozirgi O'zbekiston hududi tarkibiga Farg'ona viloyatining 62 ta volosti (bir necha qishloqlardan iborat bo'linma) Samarqand viloyatining 55 ta volosti, Sirdaryo viloyatining 31 ta volosti va Amudaryo bo'limi kirgan. Turkiston o'lkasining 3 ta Farg'ona, Samarqand va Sirdaryo viloyatlari bo'yicha hamda Buxoro amirligi va Xiva xonliklari aholisining taxminiy soni 1897-yili o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbirining yakuniy natijalari asosida qiyosiy tahlil qilib o'rganilganda ushbu hududlarning aholisi quyidagilarni tashkil etdi.

Jadvalda 1897-yil o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbirida aniqlangan aholi soni Turkiston o'lkasining viloyatlari kesimida keltirib o'tiladi.

No	Hududlar nomi	Xo'jaliklar soni	Aholisi soni	Erkaklar soni	Ayollar soni
1	Farg'ona viloyati	309855	1572214	852919	719295
2	Samarqand viloyati	147534	860021	472443	387578
3	Sirdaryo viloyati	110417	642966	351100	291866
4	Amudaryo oblasti	33172	194473	101185	93288
5	Buxoro amirligi	426675	2134240	1114960	1019280
6	Xiva xonligi	91415	488967	259097	229888
Umumiy soni		1 119 068	5 892 881	3 151 686	2 741 195

Albatta yuqorida keltirib o'tilgan jadvaldagi hududlar bo'yicha aholi soni to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni to'liq deyish qiyin. Sababi, keltirib o'tilgan bu raqamlar orasida mazkur siyosiy tadbirda o'zini va oila a'zolari ro'yxatga olinishidan qo'rqib yashiringan aholi soni yetarlichadir.

A.G.Volkov o'zining SSSRdagi demografik jarayonlar nomli kitobida 1897 yilgi aholini ro'yxatga olish tadbirining yakuniy ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston hududiga tegishli bo'lgan qismida 90 dan oshiqroq millat va elatga mansub aholi vakillari yashayotganliklarini qayd etadi. Lekin 1897-yilgi tadbir bilan bog'liq ko'plab ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilganimizda o'lkada umumiy hisobda qancha millat vakillari istiqomat qilishi aniq keltirilmagan. Shunday ekan, fikrimizcha ushbu 90 nafardan oshiqroq deb keltirib o'tilgan millatlar soni taxminiydir.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, garchi mavzu doirasida ayrim diqqatga sazovor ilmiy nashrlar e'lon qilinganiga qaramay aholini ro'yxatga olish tadbirlarining yakuniy natijalari chop etilgan statistik to'plamlar hamda ushbu jarayon bilan bog'liq bo'lgan arxiv ma'lumotlari asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Biroq, bir qator kamchiliklarga qaramay, 1897 yilgi aholini ro'yxatga olish tadbirining o'lkadagi aholi to'g'risidagi yakuniy natijalari chop etilgan birlamchi statistik to'plamlarni mazkur davrda olib borilgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatdan kelib chiqib atroflicha tahlil qiladigan bo'lsak, yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlar hamda dastlabki o'tkazilgan ro'yxatga olish tadbirining o'tkazilishi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar va aholi soniga oid statistik raqamlarning ahamiyati o'sha davrdagi aholi to'g'risida juda katta va qiziqarli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Bu ma'lumotlarning aksariyati o'lka hayotini va aholining mazkur davrdagi tarixini o'rganishda har bir kishida muayyan qiziqish uyg'otadi. 1897-yilgi aholini ro'yxatga olish dasturini ishlab chiqishda va tadbirni tashkil etishda kuzatilgan bir qator kamchiliklarga qaramay, mazkur yildagi aholini ro'yxatga olish tadbiri o'lkada istiqomat qilgan aholisi tarkibi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi, mazkur tadbir davomida aniqlangan statistik ma'lumotlar hanuzgacha mamlakatimiz tarixini o'rganishda o'z qiymatini yo'qotmadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Козлов И. Динамика численности народов. – Москва, 1969. – С.71, Демографический энциклопедический словарь. – Москва, 1985. – С.321.
2. O'z MA, R 1619-fond, 5-ro'yxat, 24-yig'ma jild, 5-varaq.
3. O'z MA, R 1619-fond, 11-ro'yxat, 636-yig'ma jild, 2-varaq.
4. Проект всеподданнейшего отчета генерал-адъютанта К.П.Кауфмана по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства. 1885. – С.17.
5. Пландовский В. Народная перепись. СПб. Б.и., 1898. – С.306.
6. Пустоход И, Воблий В. Переписи населения. – Москва: Государственное социально-экономическое издательство, 1936. – С.26.
7. Гирс Ф. Отчет о состоянии Туркестанского края. Спб. 1888. – С.24.
8. Исупов И, Борисов В. Всесоюзная перепись населения 1979 года. – Москва: Издательство «Знание». 1978. – С.17.
9. O'z MA, I 269-fond, 1-ro'yxat, 124 a-yig'ma jild, 7-varaq.
10. Первая всеобщая перепись населения Российской империи, 1897 г. Общий сводъ по империи результатовъ разработки данных первой всеобщей переписи населения, произведенной 28 января 1897 года. Том I. – С.Петербург, 1905. – С.4.
11. Первая всеобщая перепись населения Российской империи, 1897 г. Общий сводъ по империи результатовъ разработки данных первой всеобщей переписи населения, произведенной 28 января 1897 года. Том I. – С.Петербург, 1905. – С.3.
12. Лабочевский В. Хивинский район. – Ташкент, 1912. – С.25.
13. Исупов А, Борисов В. Всесоюзная перепись населения 1979 года. – Москва: Издательство «Знание». 1978. – С.17.
14. Qizil O'zbekiston gazetasi. "Kalxozda ro'yxat". 1937 yil 8 yanvar №6 (3784) son, - B.5.
15. Qizil O'zbekiston. "Bugun butun ittifoq aholi ro'yxati boshlandi". 1939 yil 17 yanvar №14 (4392) son, – B.2.
16. Статистические сведения по городам и волостям уездов Самаркандской области за 1897 г. – Самарканд, 1898. – С.7. А). Ўз МА, И 269-фонд, 1-рўйхат, 125-йигма жилд, 21-варақ., Б). Территория и население Бухары и Хорезма. I и II том. – Ташкент, 1926. – С.14.
17. Волков А. Демографические процессы в СССР. – Москва: Наука, 1987. – С.127.